

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/30.12.2019.K.01.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

KINSHAKOVA YEKATERINA VYACHESLAVOVNA

**AYRIM 3d-METALLARNI 5-METIL-1,3,4-TIADIAZOL-2-TIOLNING
YANGI HOSILALARI BILAN KOMPLEKS BIRIKMALARINING
SINTEZI VA TADQIQIQTI**

02.00.01- Noorganik kimyo

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent -2025

**Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
химическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on chemical
sciences**

Kinshakova Yekaterina Vyacheslavovna

Айрим 3d-metallarni 5-metil-1,3,4-tiadiazol-2-tiolning yangi hosilalari bilan kompleks birikmalarining sintezi va tadqiqoti. 3

Киньшакова Екатерина Вячеславовна

Синтез и исследование комплексных соединений некоторых 3d-металлов с новыми производными 5-метил-1,3,4-тиадиазол-2-тиола. . . 21

Kinshakova Ekaterina Vyacheslavovna

Synthesis and research of complex compounds of some 3d-metals with new derivatives of 5-methyl-1,3,4-thiadiazol-2-thiol. 41

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ
List of published works. 45

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/30.12.2019.K.01.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

KINSHAKOVA YEKATERINA VYACHESLAVOVNA

**AYRIM 3d-METALLARNI 5-METIL-1,3,4-TIADIAZOL-2-TIOLNING
YANGI HOSILALARI BILAN KOMPLEKS BIRIKMALARINING
SINTEZI VA TADQIQIQTI**

02.00.01- Noorganik kimyo

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent -2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/K965 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ik-kimyo.nuu.uz) va “ZiyoNET” axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Kadirova Zuxra Chingizovna
kimyo fanlari doktori, professor

Uzoqbergenova Zamira Dosnazarovna
kimyo fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent farmatsevtika instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.K.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “22” avgust soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99824) 246-02-24; E-mail: ilmiy_kengash@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 128 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: +99871 227-12-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “12” avgust kuni tarqatildi.
(2025-yil “11” avgust 14- raqamli reyestr bayonnomasi).

Z.A. Smanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, k.f.d., professor

N.X. Qutlimurotova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, k.f.d., professor

Sh.Sh. Daminova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, k.f.d., professor.

KIRISH (fan doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda turli xil geteroatomlar saqlagan ligandlarning oraliq metallar bilan hosil qilgan kompleks birikmalarni sintez qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunday metallokomplekslar tibbiyotda: biologik faol moddalar, antioksidantlar va o'smaga qarshi preparatlar, qishloq xo'jaligida: o'simliklarning o'sishi va rivojlanishini rag'batlantiruvchi moddalar, fotokimyovo optikada: fotosensibilizatorlar va bo'yoqlar, sanoatda: turli xil qo'shimchalar va korroziya ingibitorlar sifatida keng qo'llaniladi. Ayniqsa bunday kompleks birikmalar katalitik faollikka egaligi tufayli muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda katalitik faolligi yuqori bo'lgan metallokompleks birikmalardan nozik organik sintez, polimerlanish, oksidlanish va qaytarilish jarayonlarida qo'llash bo'yicha katta ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, biokimyoviy jarayonlarni identifikatsiyalash uchun qo'llaniladigan sintetik fluoressent oqsillarni samarali sintez qilishda katalitik xossalari yuqori bo'lgan kompleks birikmalarning nazariy asoslarini, tasir mexanizmlarini aniqlash muhim o'rin tutadi. Shuning uchun 3d-metallarning tiadiazol hosilalari asosida metallokompleks birikmalarini sintez qilsih, tarkibi, tuzilishi va fizik-kimyoviy hamda biologik xossalarini aniqlash katta ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida, kompleks birikmalarni sintez qilish, xossalarini o'rganish va turli sohalarda qo'llash, analitik kimyo va tibbiyotdan tortib, sanoat va qishloq xo'jaligigacha bo'lgan yo'nalishlarda muqaddam qo'yilgan poydevorga tayangan holda zamonaviy tadqiqot yo'nalishlarini rivojlantirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Xususan, biologik faol birikmalarni yaratish bo'yicha mazkur ishlar Strategiyada belgilangan "farmatsevtika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga oshirish va ichki bozorni mahalliy dori vositalari bilan ta'minlash darajasini 80 foizga yetkazish" vazifasini hal etishga qaratilgan.

Ushbu dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2018-yil 25-oktyabrdagi PQ-3983-son "O'zbekiston Respublikasi kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-son "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 13-fevraldagi PQ-4992-son "Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog'lomlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar

rivojlanishining VII. “Kimyo, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tiadiazol hosilalari va o‘tish metall ionlari asosidagi komplekslarning sintezi, ularning tarkibi, tuzilishi, termik barqarorligi, reaksiya va biologik faolligi, shuningdek qo‘llanilishi jahon olimlari - L.G. Lavrenova, V.A. Neverov, V.N. Byushkin, Singh R.K., Bharty M.K., Wang L., Chen Y.Y., Slyvka Y.I. va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan.

Respublikamizda tibbiyot, qishloq xo‘jaligi va sanoatning boshqa sohalarida qo‘llaniladigan bir qator biologik faol kompleks birikmalarni sintez qilishda akademiklar N.A.Parpiyev va B.T. Ibragimov boshchiligidagi ilmiy maktab, professorlar X.T.Sharipov, B.V.Umarov, A.A.Shabilolov, T.A.Azizov, O.F.Xodjayev, X.X.Xakimov, X.X.To‘rayev, Sh.A.Kadirova, Z.Ch.Kadirova, Sh.Sh.Daminova va ularning shogirdlari katta hissa qo‘shganlar.

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oraliq metallar tuzlarining geterotsiklik ligandlar bilan komplekslarini tahlil qilish bo‘yicha keng ko‘lamli tajribalar natijalari mavjudligiga qaramay, 3d-metallarning merkaptotiadiazol hosilalari bilan metallokomplekslari yetarlicha o‘rganilmagan. Shuning uchun 5-metil-1,3,4-tiadiazol-2-tiol hosilalari asosida kompleks birikmalarni sintez qilish va ularning fizik-kimyoviy xossalari va biologik faolliklarini o‘rganish alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universitetining ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq “Aromatik va geterotsiklik birikmalar asosida yangi biologik faol kompleks birikmalar sintezi” mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Co^{2+} , Ni^{2+} , Cu^{2+} va Zn^{2+} tuzlarining 5-metil-1,3,4-tiadiazol-2-tiol hosilalari bilan kompleks birikmalarini sintez qilish, tuzilishi va xossalari aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

5-metil-1,3,4-tiadiazol-2-tiol hosilalarini sintez qilish, ularning tuzilishini tasdiqlash va reaksiya qobiliyatini kvant-kimyoviy va fizik-kimyoviy usullar bilan aniqlash;

Co^{2+} , Ni^{2+} , Cu^{2+} va Zn^{2+} tuzlarining sintez qilingan ligandlar bilan kompleks birikmalarini sintez qilish;

olingan koordinatsion birikmalarning tarkibi, tuzilishi va xossalari zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida tahlil qilish va bog‘liqligini aniqlash;

sintez qilingan komplekslarning elektron tuzilishini, energetik va geometrik parametrlarini, shuningdek, reaksiya qobiliyatini zamonaviy kvant-kimyoviy usullar bilan aniqlash;

sintez qilingan kompleks birikmalarning biologik faolligi va qo‘llash imkoniyatlarini baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida [(5-metil-1,3,4-tiadiazol-2-il)sulfanil]sirka kislotasi (L^1), 2,2’-sulfanediilbis(5-metil-1,3,4-tiadiazol) (L^2), 5-metil-2-[(1,3-tiazol-

2-il)sulfanil]-1,3,4-tiadiazol (L^3), ularning kobalt(II), nikel(II), mis(II) va rux tuzlari bilan kompleks birikmalari olingan.

Tadqiqotning predmeti 3d-metallarning geterotsiklik ligandlar bilan kompleks birikmalarining tarkibi, tuzilishi, individualligi, fizik-kimyoviy va biologik xossalarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot usullari sifatida energiya dispersiyali rentgen tahlil bilan skanerlash elektron mikroskopiyasi (SEM-EDX), element tahlil, konduktometriya, termogravimetrik va differensial termik tahlil (TG/DTA), rentgen strukturaviy tahlil (RSA), infraqizil (IQ), Raman va yadro magnit rezonans (YMR) spektroskopiyasi, diffuz qaytarish elektron spektroskopiyasi (DQES), zamonaviy kvant-kimyoviy hisoblashlar hamda biologik faollikni aniqlash usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor yangi 5-metil-2-[(1,3-tiazol-2-il)sulfanil]-1,3,4-tiadiazol geterosiklik ligandi hamda Co(II), Ni(II), Cu(II) va Zn(II) tuzlari asosida 5-metil-1,3,4-tiadiazol-2-tiol hosilalari bilan 23 ta yangi kompleks birikmalar sintez qilingan va ularning tarkibi metall:ligand nisbati 1:2 va 3:2 bo'lgan 13 ta neytral, 8 ta kationli va 2 ta polimer tuzilishli ekanligi aniqlangan;

ilk bor ligandlarning koordinatsiyalanish xususiyati elektron zichlikning qayta taqsimlanishi bilan bog'liqligi aniqlanib, L^1 uchun karboksil guruhining kislorodi orqali monodentat koordinatsiyalanish, L^2 va L^3 uchun esa ekzotsiklik oltingugurt atomiga nisbatan β -holatda joylashgan geterohalqalarning azot atomlari orqali metall bilan barqaror olti a'zoli xelat halqalarini hosil qilgan holda bidentat xelatlanish kuzatilgan;

ilk bor RSA usuli yordamida dimerlangan gidroksloridli ligand L^1 va L^3 , oktaedrik komplekslar $[CoL^1_2(H_2O)_4]$ va $[ZnL^3_2(NO_3)_2]$, tetragonal-piramida geometriyaga ega monoyadroli $[[CuL^1_2(H_2O)_2]_n \cdot (2H_2O)_n$ va biyadroli $[Cu_2L^1_4]_n \cdot (6H_2O)_n$ polimer komplekslar, shuningdek uch yadroli komplekslar $[Cu_3L^2_2Cl_6]$ va $[Cu_3L^3_2Cl_6]$ tuzilishlari aniqlangan;

komplekslarning termik va termodinamik barqarorligi ularning tuzilish xususiyatlari hamda markaziy ionning elektron konfiguratsiyasiga bog'liq holda $Zn < Co < Ni < Cu$ qatorida barqarorlikning aniq qonuniyat asosida ortib borishi bilan yaqqol namoyon bo'lgan, bunda rux komplekslarining barqarorligi pastligiga kristall maydon barqarorlanish energiyasining nolga tengligi va sterik kuchlanish ta'sir qilishi bilan izohlangan;

sintez usuliga bog'liq holda gidratlangan va polimerlangan $[CuL^1_2(H_2O)_4]$, $[CuL^1_2(H_2O)_2]_n \cdot (2H_2O)_n$ va $[Cu_2L^1_4]_n \cdot (6H_2O)_n$ izomerlarining hosil bo'lishi aniqlangan;

ilk bor uch yadroli $[Cu_3L^3_2Cl_6]$ kompleksining yashil fluoressent oqsil (GFP) analogini sintez qilishdagi yuqori katalitik faolligi, o'ziga xosligi va tanlovchanligi uning Yan-Teller effekti, elektron almashinuv o'zaro ta'sirlari va organik ligandning moslashuvchanligi kabi omillarning murakkab ta'siriga asoslangan noyob ko'priksimon arxitekturasi bevosita natijasi ekanligi aniqlangan, bu holat kompleksga Lyuis kooperativ kislotasi sifatida ishlash va reagentlarning

sinergetik faolligini ta'minlash imkonini berib, mahsulot unumini oshirgan va bu tizim an'anaviy bir markazli katalizatorlardan tubdan farq qilishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

L^2 va L^3 ligandlarini sintez qilishning yangi usullari ishlab chiqilgan, shuningdek, Co(II), Ni(II), Cu(II) va Zn ionlarining L^{1-3} ligandlari bilan kompleks hosil qilishning eng maqbul sharoitlari aniqlangan;

sintez qiingan birikmalar $(C_5H_6N_2O_2S_2)_2 \cdot HCl$, L^2 , L^3 , $[CoL^1_2(H_2O)_4]$, $[CuL^1_2(H_2O)_2]_n \cdot (2H_2O)_n$, $[Cu_2L^1_4]_n \cdot (6H_2O)_n$, $[Cu_3L^2_2Cl_6]$, $[ZnL^3_2(NO_3)_2]$ va $[Cu_3L^3_2Cl_6]$ ning fazoviy tuzilishi va barcha kristallografik ko'rsatkichlari isbotlangan, ulardan L^3 (2443589), $[CoL^1_2(H_2O)_4]$ (2408680), $[ZnL^3_2(NO_3)_2]$ (2434439) va $[Cu_3L^3_2Cl_6]$ (2434442) birikmalari Cambridge Crystallographic Data Center xalqaro kristallografik ma'lumotlar bazasiga kiritilgan;

sintez qilingan yangi kompleks birikmalarning tarkibi va tuzulishiga xos xususiyatlari, ya'ni birikma turi, markaziy ion tabiati hamda akva-, atsido- va geterotsiklik ligandlarning koordinatsiyalanish qobiliyati ularning biologik va katalitik faolligiga ta'sir etishi aniqlangan;

CSIR-NCL (Hindiston) laboratoriyasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida $[Cu_3L^3_2Cl_6]$ kompleksi GFP birikmalari sintezini katalizlash uchun o'ziga xos xususiyatlar va selektivlikni namoyon qilishi, shuningdek, yakuniy mahsulot unumini oshirishi aniqlangan;

$[Cu_3L^3_2Cl_6]$ kompleksining *Bacillus subtilis*ga, shuningdek $[CoL^3_2Cl_2]$ va $[ZnL^3_2(NO_3)_2]$ komplekslarining *Staphylococcus aureus* va *Escherichia coli* ga nisbatan yuqori antibakterial faolligi (nazorat antibiotiklaridan yuqori) aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi element, SEM-EDX, konduktometrik, TG/DTA va RSA tahlillar, YAMR-, IQ-, Raman- va DQE-spektroskopiyasi kabi zamonaviy tadqiqot usullari, shuningdek, modifikatsiyalangan "agar chuqurchalariga diffuziya" usulidan foydalangan holda antimikrob faollikni skrining qilish bo'yicha kvant-kimyoviy hisoblashlar va in vitro tadqiqotlar bilan isbotlangan. Barcha xulosalar tajriba natijalari asosida chiqarilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Co(II), Ni(II), Cu(II) va Zn xlorid, nitrat va sulfat tuzlarining 5-metil-1,3,4-tiadiazol-2-tiol merkaptos hosilalari bilan koordinatsiyalanish qonuniyatlarini aniqlash, geterotsiklik ligandlar donor atomlarining raqobatbardoshligi, metall ionlari, akva- va atsidoligandlar tabiatining kompleks birikmalar tarkibi va tuzulishiga ta'sirini zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari orqali o'rganish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati L^3 (2443589), $[CoL^1_2(H_2O)_4]$ (2408680), $[ZnL^3_2(NO_3)_2]$ (2434439) va $[Cu_3L^3_2Cl_6]$ (2434442) birikmalarining kristallografik ma'lumotlari Kembrij xalqaro ma'lumotlar bazasiga kiritilganligi, GFP birikmalari sintezi uchun spetsifik va selektiv katalizator yaratilganligi bilan va *Bacillus subtilis*, *Staphylococcus aureus* va *Escherichia coli* ga nisbatan yuqori antibakterial faollikka ega bo'lgan komplekslar sintez qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. 3d-Metallarning 5-metil-1,3,4-tiadiazol-2-tiol merkaptos hosilalari bilan yangi metallokompleks birikmalarini

sintez qilish va fizik-kimyoviy, antibakterial va katalitik xossalarini aniqlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

$C_6H_5N_3S_3$ (L^3) (2443589), $[CoL^1_2(H_2O)_4]$ (2408680), $[ZnL^3_2(NO_3)_2]$ (2434439) va $[Cu_3L^3_2Cl_6]$ (2434442) tarkibli birikmalarning rentgenostrukturaviy tahlili natijalari Kembrij kristallografik ma'lumotlar bazasiga (Cambridge Structural Database, doi.org/10.1107/S2056989024011939, doi.org/10.1107/S2056989025004980) kiritilgan, bu esa sintez qilingan birikmalarga o'xshash yangi kimyoviy birikmalarni sintez qilish va tuzilishini tavsiflash imkonini bergan;

$[Cu_3L^3_2Cl_6]$ kompleks birikmasi CSIR-NCL (Puna, Hindiston) laboratoriyasida GFP birikmalarini sintez qilishda katalizator sifatida sinab ko'rilgan (Hindiston davlati Puna shahridagi CSIR-Milliy Kimyo Laboratoriyasi professori Dr. Rajesh G. Gonnadening 2024 yil 26 dekabrda xati). Natijada kompleks o'ziga xos xususiyatlarni, selektivlikni namoyon qilishi orqali yakuniy mahsulot unumini oshirishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyligi asoslangan, maqsad va vazifalar, tadqiqot obyektlari va predmetlari berilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish istiqbollari bo'yicha xulosa qilingan hamda chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**1,3,4-Tiadiazol hosilalari va ular asosidagi kompleks birikmalarning olinishi va xossalari**" deb nomlangan birinchi bobida 1,3,4-tiadiazol hosilalarining sintezi, xossalari va qo'llanilish sohalari keltirilgan. Jumladan, 1,3,4-tiadiazol hosilalari asosidagi kompleks birikmalarning sintez usullari, fizik-kimyoviy xossalari, biologik faolliklari va qo'llanilish sohalari bo'yicha adabiyotlar o'rganilgan va tahlil qilingan. 5-metil-1,3,4-tiadiazol-2-tiol va uning hosilalari organik ligandlar sifatida kompleks hosil qilish xossalarini namoyon qilishi hamda tibbiyot, materialshunoslik, qishloq xo'jaligi va kimyoning


boshqa sohalarida istiqbolli ekanligi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning "5-Metil-1,3,4-tiadiazol-2-tiolning merkaptosilali ligandlari va ular asosida 3d-metall tuzlari bilan kompleks birikmalar sintezi" deb nomlangan ikkinchi bobida 5-metil-1,3,4-tiadiazol-2-tiol (L^1 - [(5-metil-1,3,4-tiadiazol-2-il) sulfanil]sirka kislota, L^2 - 2,2'-sulfanediilbis(5-metil-1,3,4-tiadiazol) va L^3 - 5-metil-2-[(1,3-tiazol-2-il)sulfanil]-1,3,4-tiadiazol) ning yangi merkaptosilali ligandlari hamda ular asosida 3d-metall tuzlari (Co^{2+} , Ni^{2+} , Cu^{2+} va Zn^{2+}) bilan kompleks birikmalarining sintez qilish usullari bayon etilgan. Ishlatilgan boshlang'ich moddalar va fizik-kimyoviy tadqiqot usullari tavsiflangan, shuningdek, kvant-kimyoviy hisoblashlar va biologik faollikni o'rganish uchun dasturiy ta'minot parametrlari keltirilgan. Sxemada ligandlar va komplekslarni sintez qilish reaksiyalari va sharoitlari keltirilgan olingan birikmalarning ba'zi fizik-kimyoviy xossalari 1-jadvalda aks ettirilgan.



Sxema. Ligandlar va kompleks birikmalar sintezi

Ilk bor yangi L^3 ligandini sintez qilish usuli ishlab chiqildi, shuningdek, ilgari adabiyotlarda tavsiflanmagan L^2 ligandini sintez qilishning yangi usuli ishlab chiqildi. Olingan ligandlar asosida $Co(II)$, $Ni(II)$, $Cu(II)$ va $Zn(II)$ ning 23 ta koordinatsion birikmalari sintez qilindi. Element tahlil natijalari, SEM-EDX ma'lumotlari (1-rasm), shuningdek, eruvchanlik va molyar elektr o'tkazuvchanlik ($Sm \cdot m^2 \cdot mol^{-1}$) asosida olingan birikmalarning tarkibi va taxminiy tuzilishi tasdiqlandi. Dastlabki metall va ligandning 1:2 nisbati turli tarkibdagi (1:2 va 3:2) va tuzilishdagi komplekslarni olish imkonini berdi. L^1 va L^3 bilan neytral, L^2 bilan kation kompleks birikmalar hosil bo'lishi aniqlandi.



1-rasm. SEM-EDX natijalari bo'yicha $[\text{CoL}_3\text{Cl}_2]$ kompleksining mikrostrukturasi, sifat va miqdoriy tarkibi

1-jadval

Sintez qilingan ligandlar va komplekslarning tarkibi va fizik-kimyoviy xossalari


Tuz anioni	Birikma	Rang	Unum %	Ts °C	Eruvchanlik					λ_m DMSO
					Suv	Metanol	Etanol	Xloroform	DMF	
-	L^1		76	231	P	M	M	H	P	
Cl^- , NO_3^- , SO_4^{2-}	$[\text{CoL}_2(\text{H}_2\text{O})_4]$		82	110	H	H	H	H	P	17,1
	$[\text{NiL}_2(\text{H}_2\text{O})_4]$		77	112	H	H	H	H	P	12
	$[\text{CuL}_2(\text{H}_2\text{O})_4]$		84	135	H	H	H	H	P	15,8
	$[\text{ZnL}_2(\text{H}_2\text{O})_4]$		78	108	M	H	H	H	P	24,2
SO_4^{2-}	$[\text{CuL}_2(\text{H}_2\text{O})_2]_n \cdot (2\text{H}_2\text{O})_n$		77	-	M	M	M	H	P	27,4
NO_3^-	$[\text{Cu}_2\text{L}_4]_n \cdot (6\text{H}_2\text{O})_n$		81	-	M	M	M	H	P	26,8
Cl^- , NO_3^-	L^2		84	116	H	P	P	M	P	
	$[\text{CoL}_2(\text{H}_2\text{O})_2]\text{Cl}_2$		78	127	P	P	P	M	P	119,6
	$[\text{CoL}_2(\text{H}_2\text{O})_2](\text{NO}_3)_2$		76	101	P	P	P	M	P	115,3
	$[\text{NiL}_2(\text{H}_2\text{O})_2]\text{Cl}_2$		82	131	P	P	P	M	P	108,7
	$[\text{NiL}_2(\text{H}_2\text{O})_2](\text{NO}_3)_2$		78	127	P	P	P	M	P	104,4
	$[\text{CuL}_2\text{H}_2\text{O}]\text{Cl}_2$		81	137	P	P	P	M	P	94,7
	$[\text{Cu}_3\text{L}_2\text{Cl}_6]$		63	140	M	M	M	H	P	41,3
	$[\text{CuL}_2\text{H}_2\text{O}](\text{NO}_3)_2$		84	138	P	P	P	M	P	112,3
	$[\text{ZnL}_2(\text{H}_2\text{O})_2]\text{Cl}_2$		79	128	P	P	P	M	P	107,6
$[\text{ZnL}_2(\text{H}_2\text{O})_2](\text{NO}_3)_2$		81	120	P	P	P	M	P	103,8	
Cl^- , NO_3^-	L_A		60	54	H	P	P	P	P	
	$[\text{CoL}_3\text{Cl}_2]$		89	174	H	P	P	M	P	7,3
	$[\text{CoL}_3(\text{NO}_3)_2]$		91	158	H	P	P	M	P	6,4
	$[\text{NiL}_3\text{Cl}_2]$		92	187	H	P	P	M	P	6,1
	$[\text{NiL}_3(\text{NO}_3)_2]$		87	177	H	P	P	H	P	5,3
	$[\text{Cu}_3\text{L}_3\text{Cl}_6]$		75	199	M	P	P	H	P	35,3
	$[\text{CuL}_3(\text{NO}_3)_2]$		83	189	H	P	P	H	P	9,1
	$[\text{ZnL}_3\text{Cl}_2]$		88	171	H	P	P	H	P	5,2
$[\text{ZnL}_3(\text{NO}_3)_2]$		79	153	H	P	P	M	P	3,7	

Dissertatsiyaning “Sintez qilingan ligandlar va ular asosida 3d-metall tuzlari bilan kompleks birikmalarning fizik-kimyoviy tadqiqotlari va biologik faolligi tahlili” deb nomlangan uchinchi bobida ligandlar va ularning 3d-metallar bilan kompleks birikmalarini zamonaviy tadqiqot usullari yordamida tarkibi va tuzilishning tahlili, kvant-kimyoviy hisoblash natijalari, biologik faolligi va amaliyotda qo'llash imkoniyatlari keltirilgan.

Sintez qilingan ligandlarning tuzilishini aniqlash uchun IQ- va YAMR-spektroskopiya, shuningdek, RSA usullari qo'llanildi.

L¹ ning IQ-spektrida 1721 va 1239 sm⁻¹ da mos ravishda karboksil guruhidagi assimetrik va simmetrik valent tebranishlarga tegishli yangi yutilish chiziqlari qayd etildi, shuningdek, 3376 sm⁻¹ da uzun to‘lqinli sohada gidroksoguruh bog‘i tebranishining yutilish chizig‘i aniqlandi. L² IQ-spektrlari uchun o‘ziga xos xususiyat 2589 sm⁻¹ sohada dastlabki birikmada -SH bog‘ining tebranishiga mos keladigan quyi intensivlikdagi xarakteristik yutilish chizig‘ining yo‘qligi, shuningdek, C-S-C bog‘ining hosil bo‘lishi tufayli 600-800 sm⁻¹ sohada o‘zgarishlar kuzatildi.

L³ ligandining YAMR ¹H spektrida molekulaning tiazol qismidagi vodorod atomlari yadrosini ekranlashga tegishli δ=7.86 va 7.48 ppm da protonlarning kimyoviy siljishlariga mos keladigan dupletlar qayd etildi, shuningdek, 2.76 ppm da metil guruhi protonlarining singleti identifikatsiya qilindi. ¹³C YAMR spektrida 15,9 ppm da kimyoviy siljish metil guruhi uglerodiga tegishli bo‘lib, metin guruhi uglerodlari turli signal qiymatlariga ega va o‘rinbosarlarning ta‘siriga qarab aniqlangan (2-rasm).



2-rasm. L³ uchun ¹H (a) va ¹³C (b) YAMR spektrlari


RSA shuni ko‘rsatdiki, L¹ ligandining birlamchi sintezida uning dimerlangan gidroksloridli hosilasi olingan, bu bizni L¹ sintezi usulini pH sharoitini 9 gacha o‘zgartirish orqali tuzatishga undadi. 5-Metil-1,3,4-tiadiazol-2-tiolning uchta hosilasi monoklin singoniyada, ammo turli fazoviy guruhlarda kristallanishi aniqlandi (2-jadval).

2-jadval

Ligandlar monokristallarining kristallografik ma‘lumotlari va tuzilishini aniqlashtiruvchi parametrlar


Parametr	L ¹ ning hosilasi	L ²	L ³
Kimyoviy formula	(C ₅ H ₆ N ₂ O ₂ S ₂)· (C ₅ H ₅ N ₂ O ₂ S ₂)·(Cl)	C ₆ H ₆ N ₄ S ₃	C ₆ H ₅ N ₃ S ₃
Singoniya, f. g.	Monoclinic, <i>P2₁/n</i>	Monoclinic, <i>P2₁/m</i>	Monoclinic, <i>P2₁/c</i>
Temperatura (K)	293	150	296
<i>a</i> , <i>b</i> , <i>c</i> (Å)	5.32309 (5), 14.97559 (13), 19.85686 (19)	5.6713 (5), 6.6579 (9), 11.9899 (10)	10.6463 (2), 7.7151 (2), 11.1774 (3)
β (°)	95.5754 (9)	102.625 (9)	103.272 (1)
<i>V</i> (Å ³)	1575.43 (3)	441.78 (8)	893.56 (4)
R-Factor (%)	4.98	6.15	3.35

L¹ hosilasining kristall tuzilishida ikki turdagi kuchli molekulararo vodород bog'lari kuzatiladi: O—H···Cl = 2,66(9) Å va O—H···O = 1,73 (9) Å.. Ikkinchi ligandning tuzilishi qisqargan C-H···S kontaktlari hisobiga, uchinchi ligandniki esa qo'shni molekular o'rtasida olti a'zoli halqa hosil qiluvchi C-H···N molekulararo vodород bog'lari hisobiga barqarorlashgan. Ikkala strukturalarda π...π - steking o'zaro ta'sirlari aniqlandi. Bog'lanish uzunliklari va burchaklar kabi geometrik parametrlar standart qiymatlarga va boshqa turdosh tuzilmalardagi qiymatlarga yaqin (3-rasm).



3-rasm. L² (a) va L³ (b) dagi molekulararo o'zaro ta'sirlar

Ligandlar va kompleks birikmalarning elektron energiyalari va geometrik parametrlarini nazariy o'rganish zamonaviy kvant-kimyoviy usullardan foydalangan holda DFT B3LYP 6-311G(d,p)/LanL2dz usuli yordamida amalga oshirildi. Ligandlarning donor atomlarida molekulyar elektrostatik potensial va Malliken zaryadlarining taqsimlanishi 4-rasmda ko'rsatilgan.



4-rasm. L¹⁻³ ligandlarining MEPlari

3-jadval

Ligandlarning reaksiyon qobiliyati deskriptorlari

Deskriptor	E _{HOMO}	E _{LUMO}	ΔE	I	A	χ	η	μ	S	ω
L ¹	-6.772	-1.554	5.218	6.772	1.554	4.163	2.609	-4.163	0.19	3.32
L ²	-6.881	-1.928	4.953	6.881	1.928	4.404	2.476	-4.404	0.2	3.92
L ³	-6.446	-1.422	5.024	6.446	1.422	3.934	2.512	-3.934	0.2	3.08

Reaksiyon qobiliyatning hisoblangan parametrlaridan (3-jadval) xulosa qilish mumkinki, har uchala ligand ham oraliq qattqlikdagi birikmalar qatoriga kiradi, bu esa ularni 3d-metall kationlari bilan kompleks hosil qilish uchun yaxshi nomzodlarga aylantiradi. Past elektrofillik indeksleri bu molekularning

tashqaridan elektronlarni qabul qilishga moyil emasligini va faqat donar ligandlar ekanligini ko'rsatadi.

Kvant-kimyoviy usullar bilan olingan termokimyoviy ko'rsatkichlardan Gess qonuni bo'yicha reaksiyalarning hosil bo'lish entalpiyasi va Gibbs energiyasi hisoblab chiqildi (4-jadval). Aniqlanishicha, ligandlar termodinamik jihatdan barqaror bo'lib, barcha sintez reaksiyalari o'z-o'zidan boradi.

4-jadval

L¹⁻³ termodinamik parametrlari

Parametr	L ¹	L ²	L ³
EE+ ichki energiya (H)	-1250,504	-1645,636	-1590,475
EE + entalpiya (H)	-1250,503	-1645,635	-1590,474
EE + Gibbs energiyasi (H)	-1250,553	-1645,692	-1590,524
Issiqlik sig'imi (Cal/Mol-Kelvin)	37,910	46,043	38,941
Entropiya (Cal/Mol-Kelvin)	105,610	120,185	104,586
Dipol momenti (Debye)	3,010	4,223	4,715
Qutblanuvchanlik (α) (a.u.)	109,853	148,276	137,828
ΔH reaksiyalari (ккал/моль)	-86,579	-34,588	-62,369
ΔG reaksiyalari (ккал/моль)	-82,231	-27,705	-68,177
ΔS reaksiyalari (ккал/моль/К)	0,015	0,023	0,019

Ligandlarni markaziy atomlarga koordinatsiyalovchi donor atomli funksional guruhlarni aniqlash uchun sintez qilingan Co²⁺, Ni²⁺, Cu²⁺ va Zn²⁺ kompleks birikmalarning IQ-spektrlari olindi hamda dastlabki L¹⁻³ organik ligandlarning IQ-spektrlari bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Birinchi ligand asosidagi kompleks birikmalar uchun ligandning metallarga karboksil guruhi orqali monodentat koordinatsiyasi haqida xulosa qilindi, chunki asimmetrik valent tebranishlarining yutilish chastotalari qiymatlarining pasayishi va karboksil guruhi bog'larining simmetrik valent tebranishlarining yutilish chastotalari qiymatlarining oshishi qayd etildi, bunda qiymatlardagi farq 200 sm⁻¹ dan ortiqni tashkil etadi. Uzun to'liqinli sohadagi keng yutilish chiziqlari komplekslar tarkibida suv molekullari mavjudligini ko'rsatdi.

5-jadval

L¹ ligand va uning komplekslarining IQ spektrlaridagi yutilish chiziqlarining asosiy chastotalari (sm⁻¹)

Birikma	ν_{O-H}	ν_{sCH_2}	ν_{asCOO^-}	ν_{sCOO^-}	Δ	ν_{C-S-C}	ν_{M-O}
L ¹	3376	2930	1721	1239	482	684	-
[CoL ¹ ₂ (H ₂ O) ₄]	3381	2908	1590	1374	216	666	583
[NiL ¹ ₂ (H ₂ O) ₄]	3354	2911	1595	1313	282	688	587
[CuL ¹ ₂ (H ₂ O) ₄]	3358	2952	1614	1380	234	680	584
[ZnL ¹ ₂ (H ₂ O) ₄]	3397	2985	1690	1381	309	675	556


Metallarning L² ligand donor atomlari bilan bog'lanishini aniqlash uchun Raman spektrlari olindi va tahlil qilindi. Ligandning metallga koordinatsiyasi donor azot atomi orqali amalga oshirilishi aniqlandi, bu ~450 sm⁻¹ atrofidagi sohada tebranishning yangi chiziqlarini mavjudligi bilan tasdiqlanadi, erkin ligand L² spektrida shunga o'xshash chiziqlar qayd etilmagan. Shuningdek, komplekslarning spektrlarida ~545 sm⁻¹ sohada chiziqlar mavjud bo'lib, ularni

kompleks hosil qiluvchi va koordinatsiyalangan suv molekulari o'rtasidagi M-O bog'ining tebranishlariga kiritish mumkin.

Termogravimetriya va differensial termik tahlil (TG/DTA) kombinatsiyasida o'tkazilgan sinxron termik tahlil komplekslarning termik barqarorligi, suv molekularining tarkibi, fazaviy o'tishlar va harorat oshishi bilan molekularlarda sodir bo'ladigan massa yo'qotishlari haqida ma'lumot olish imkonini berdi.

Nikelning L¹ bilan kompleksining parchalanishi uch bosqichda boradi (5a-rasm). Endoeffekt bilan birga keladigan birinchi massa yo'qotish 4 ta koordinatsiyalangan suv molekulasining kompleksdan chiqishiga to'g'ri keladi. So'ngra molekulaning organik qismi destruksiya uchraydi va termolizning oraliq mahsulotlari hosil bo'ladi. Uchinchi bosqichda organik bo'laklarning yonishi sodir bo'ladi, oxirgi mahsulot nikel (II) oksidi.

Misning L² ligand bilan kompleksining parchalanishi ikki bosqichda sodir bo'ladi (5b-rasm), birinchi bosqichda bir nechta issiqlik effektlari qayd etilgan: birinchisi - endotermik, bu bitta koordinatsiyalangan suv molekulasining ajralib chiqishiga to'g'ri keladi. Keyingisi ekzotermik effekt xloriddan uchuvchan HCl hosil bo'lishi bilan bog'liq deb taxmin qilinadi va bu kompleksning massa yo'qotish foizi bilan tasdiqlanadi. Keyingi ketma-ket endotermik effektlar organik ligandning parchalanishi bilan bog'liq. Umuman olganda, 400°C gacha kompleks umumiy massaning 74,5% ni yo'qotadi va oxirgi mahsulot sifatida mis (II) oksidi aniqlangan.




5-rasm. Derivatogrammalar: [NiL₂(H₂O)₄] (a) va [CuL₂H₂O]·Cl₂ (b)

3d-Metall xloridlarining L³ bilan hosil qilgan komplekslarining derivatogrammalari o'rganilganda, komplekslar parchalanishining birinchi bosqichidagi issiqlik effektlari ligandning organik qismi destruksiya boshlanishi bilan bog'liqligi aniqlandi. Komplekslar tarkibida Co<Ni<Cu termik barqarorligining ortish qatori hamda kristallizatsion va koordinatsion suvning yo'qligi aniqlandi.

L³ bilan metall xloridlari komplekslarining DQES spektrlari (6-rasm) tahlili shuni ko'rsatdiki, kobalt bilan kompleks buzilgan oktaedrik tuzilishga ega, chunki ⁴T_{1g}(F)→⁴T_{1g}(P) (~23256), ⁴T_{1g}(F)→⁴A_{2g}(F) (~16950) elektron o'tishlar, shuningdek, koordinatsion qurshov simmetriyasi ta'siri tufayli kuchsiz o'tish (~15385) qayd etilgan. Nikel bilan kompleks ham oktaedrik tuzilishga ega, chunki u quyidagi elektron o'tishlarga ega: ³A_{2g}(F)→³T_{1g}(P) (~25641), ³A_{2g}(F)→³T_{1g}(F)

(~19608), ${}^3A_2g(F) \rightarrow {}^3T_2g(F)$ (~13889). Misning uch yadroli kompleksi ${}^2E_g \rightarrow {}^2T_2g$ parchalangan o‘tishga va Yan-Teller effekti tufayli markaziy mis ionining buzilgan oktaedrik atrofiga ega.



6-rasm. Kompleslarning diffuz qaytishining elektron spektrlari: [CoL³₂Cl₂] (a), [NiL³₂Cl₂] (b) va [Cu₃L³₂Cl₆] (c)

RSA usulida 6 ta kompleks birikmalarning tuzilishi aniqlandi, ularning kristallografik (6-jadval) va geometrik parametrlari aniqlandi.


6-jadval

Komplekslar tuzilishining asosiy kristallografik ma’lumotlari

Parametr	[CoL ¹ ₂ (H ₂ O) ₄]	[CuL ¹ ₂ (H ₂ O) ₂] _n ·(2H ₂ O) _n	[Cu ₂ L ¹ ₄] _n ·(6H ₂ O) _n
Kim. formula	C ₁₀ H ₁₈ CoN ₄ O ₈ S ₄	(C ₁₀ H ₁₈ CuN ₄ O ₈ S ₄) _n	(C ₂₀ H ₃₂ Cu ₂ N ₈ O ₁₄ S ₈) _n
CCDC	2408680	-	-
M _r	509	(513,5) _n	(991) _n
Singoniya	Monoklinik	Monoklinik	Triklirik
fazoviy guruh	<i>P</i> 2 ₁ / <i>c</i>	<i>P</i> 2 ₁ / <i>c</i>	<i>P</i> -1
a, b, c (Å)	5.1950 (2), 10.0347	12.4497 (2), 14.6898 (2),	7.7963 (4), 9.4321
α, β, γ (°)	β 91.892 (3)	β 90.2899 (14)	92.380 (4), 104.680
V (Å ³)	985.19 (6)	3925.92 (10)	963.86 (9)
Z	4	4	4
R-Factor (%)	3.52	12,6	6,21
Parametr	[Cu ₃ L ² ₂ Cl ₆]	[Cu ₃ L ³ ₂ Cl ₆]	[ZnL ³ ₂ (NO ₃) ₂]
Kim. formula	C ₁₂ H ₁₂ Cl ₆ Cu ₃ N ₈ S ₆	C ₁₂ H ₁₀ Cl ₆ Cu ₃ N ₆ S ₆	C ₁₂ H ₁₀ N ₈ O ₆ S ₆ Zn ₁
CCDC	-	2434442	2434439
M _r	864	834	620
Singoniya	Triklirik	Triklirik	Triklirik
fazoviy guruh	<i>P</i> -1	<i>P</i> -1	<i>P</i> -1
a, b, c (Å)	7.7535(17),	8.062 (3), 8.076 (3),	8.2054 (2), 8.2601
α, β, γ (°)	76.58 (2), 78.51 (2),	85.989 (13), 70.483 (11),	64.673 (1), 71.193
V (Å ³)	685.9 (3)	631.0 (4)	524.26 (3)
Z	3	1	2
R-Factor (%)	6,5	4,92	1,89


[CoL¹₂(H₂O)₄] kompleksida (7a-rasm) inversiya markazida Co (II) joylashgan bo‘lib, u olti koordinatsiyalangan, oktaedrik atrofi buzilgan. Ikkala karboksilat ligandlar monodentat bo‘lib, bu haqda avvalroq IQ-spektrlar tahlili natijalaridan xulosa qilingan edi. Ligandlarning joylashuvi bitta mustahkam ichki molekulyar vodorod bog‘lanish suv/karboksilat hosil bo‘lishiga imkon beradi. Kristallning o‘shishi molekulararo vodorod bog‘lar hisobiga uch yo‘nalishda amalga oshadi

(7b-rasm). Xirshfeld sirtining tahlili shuni ko'rsatadiki, molekulararo o'zaro ta'sirlarga $H \cdots H$, $N \cdots H$ $O \cdots H$ kontaktlar eng katta hissa qo'shadi (7c-rasm)



7-rasm. $[CoL_2(H_2O)_4]$ ning tuzilishi (a), vodorod bog'lari (b) va qadoqlashda atomlararo o'zaro ta'sirlarning foiz ulushi (c)


Sintez paytida erituvchining turli konsentratsiyalarining qiymati mis tuzlarining L^1 bilan koordinatsion birikmalarining tuzilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi, bunda $Cu(II)$ tuzlarining turli anionlari kompleks hosil qilishda ishtirok etmadi va $[CuL_2(H_2O)_2]_n \cdot (2H_2O)_n$ va $[Cu_2L_4]_n \cdot (6H_2O)_n$ komplekslari polimer tuzilishga ega.



8-rasm. $[CuL_2(H_2O)_2]_n \cdot (2H_2O)_n$ (a) va $[Cu_2L_4]_n \cdot (6H_2O)_n$ (b) polimer zanjirlari


Monomer zvenosida bitta mis ioni bo'lgan kompleks buzilgan kvadrat-piramidal koordinatsion poliedrga ega. Monomer zvenosida ikkita mis atomi bo'lgan kompleks - biyadroli, klaster tipidagi, misning har bir atomi pentakoordinatsiyalangan. Cu-Cu masofalari 2.682 \AA ni tashkil etadi. Ushbu qiymatlar "xitoy fonari" tuzilishiga ega bo'lgan komplekslar uchun xos bo'lib, Cu-Cu bog'ining hosil bo'lishini tasdiqlaydi. Ushbu birikmalar bir xil empirik tarkibda koordinatsion sferaning dimerlanishini ko'rsatib, koordinatsion polimerlanish izomerlari ekanligi aniqlandi. Bundan tashqari, gidrat izomeriyasi ham kuzatiladi.

